

FUQAROLIK JAMIYATINI SHAKLLANTIRISH VA INSON
HUQUQLARINI TAMINLASHDA SUD TIZIMIDAGI
ISLOHOTLARNING O'RNI

Vohidov Sardorbek Bahodir o'g'li

Andijon davlat Pedagogika instituti

Ijtimoiy fanlar kafedrasida stajyor o'qituvchisi,

*Ijtimoiy –gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi
(huquq ta'limi) mutaxassisligi 2-kurs magistranti*

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston Respublikasida olib borilyotgan islohotlar, hususan fuqarolik jamiyatini shakllantirish, huquqiy davlat qurish borasida olib borilyotgan ishlar, inson huquqlarini mustahkamlash va sud tizimini isloh qilish, sudlar mustaqilligini ta'minlash, fuqarolik jamiyatini shakllanishida sud hokimiyatining o'rni ko'rsatib o'tilgan.

Abstract: In the article, the reforms carried out in the Republic of Uzbekistan, especially the work carried out on the formation of civil society, the construction of a legal state, the strengthening of human rights and the reform of the judicial system, ensuring the independence of courts, showing the role of the judiciary in the formation of civil society. passed.

Key words: Society, citizen, reform, gaining independence, human rights, power, freedom, democracy,

Kalit so'zlar: Jamiyat, fuqaro, islohot, mustaqillikni qo'lga kiritilishi, inson huquqlari, hokimiyat, erkinlik demokiratiya,.

Аннотация: В статье реформы, проводимые в Республике Узбекистан, особенно работа, проводимая по формированию гражданского общества, построению правового государства, укреплению прав человека и реформе судебной системы, обеспечению независимость судов, показывающая роль судебной власти в формировании гражданского общества.

Ключевые слова: общество, гражданин, реформа, обретение независимости, права человека, власть, свобода, демократия,

KIRISH

Mustaqillik sharofati bilan demokratik islohotlar yo'liga kirgan O'zbekiston Respublikasi demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyati qurish asosiy maqsad va bu boradagi vazifalar belgilab olindi. Endilikda mamlakatimizda «Barqaror bozor iqtisodiyoti ochiq tashqi siyosatga asoslangan kuchli demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish pirovard maqsad bo'lib qolishi kerak. Shunday jamiyatgina O'zbekiston xalqining munosib turmushini, uning huquq va erkinligini

kafolatlashi, milliy an'analar va madaniyat qayta tiklanishini, shaxs sifatida insonning ma'naviy-axloqiy kamol topishini ta'minlashi mumkin». Shu bilan birga, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirishda shaxs siyosiy-huquqiy faolligi ulkan ahamiyat kasb etishi mumkin¹.

MATERIAL VA METODLAR

Maqolada qiyosiy tahlil usulidan foydalanilgan holda sud hokimiyatidagi islohatlar va inson huquqlarini taminlash borasidagi amalga oshirilayotgan ishlar va adolatli fuqarolik jamiyati qurush borasidagi olib borilyotgan ishlar tahlil qilingan. Zero, har bir davlatda inson huquqlarni taminlash fuqarolik teng va adolatli jamiyatini barpo etish dolzarb masala hisoblanadi. Qabul qilinayotgan qonunlarni ijrosini taminlash, qonun qoydalarni buzganlik uchun javobgarlik choralarini qo'llash, bu borada sud hokimiyatini o'rni va mavqeyiyini oshirish, ularning adolat va oshkoralik tamaoillariga amal qilgan holda ish olib borishi juda muhim. Sud hokimiyati tizimidagi islohotlar yuqoridagi masalalar uchun asos bo'lib hizmat qiladi.

NATIJA VA MULOHAZALAR

Mustaqillik yillarida yurtimizda sud-huquq sohasidagi islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirib kelinmoqda. O'zbekiston o'z musatqilligini qo'lga kiritib barcha sohalarda tub islohatlar qilish zarurligini anglagan holda barcha islohotlarni bosqichma bosqich amalga oshirish yo'lini tanladi. Barcha sohalarda hususan iqtisodiyot, madaniyat va manaviyat, ta'lim, sog'liqni saqlash kabi tarmoqlarada amalga oshirildi. Shu qatori yangi davlat yangi siyosiy tuzum yuqorida sanb o'tilgan sohalarni qonun ustuvorligini taminlamay turib amalga oshirib bo'lmaydi. Shu bois dastavval qonun ustuvorligini taminlashga alohida e'tibor berildi. O'zbekistonda inson huquqlarini taminlash, adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etish muhim masala sifatida qaraldi. Inson va fuqarolar huquqlarini taminlash yangi barpo etilgan davlatda qonun ustuvorligi va sud huquq tizimini isloh qilish borasida birinchi qadam tashlandi. Bu borada 1992-yil 8- dekabrda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Davlatning asosiy qonunida davlat va fuqarolar o'rtasidagi huquq va majburiyatlar mustahkamlab qo'yildi. Konstitutsiyada inson va fuqarolar huquqlari va erkinliklari davlat tomonidan kafolatlandi. O'zbekiston Respublikasi o'z Konstitutsiyasini qabul qilinishi bu sohadagi birinchi qadam bo'ldi. Konstitutsiyaga asosan inson va fuqarolar huquqlari va sud tizimida bir qator qonunlar qabul qilinishiga zamin yaratdi. Xususan 17.11.1993 yil 924-XII-son bilan O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"² qonuni qabul qilindi. Ushbu qonun qabul qilinishi inson huquqlarini taminlashda muhim hujjat bo'di. Mustaqillikdan oldin sud hokimiyati inson va fuqarolarni jazolovchi organ sifatida qaralardi, mustaqillikni qo'lga kiritilgandan so'ng sud

¹ To'raqulov M.A. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishda mahalliy davlat xokimiyatining roli. Toshkent: O'zbekiston. 2017. B. 36

² O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida" qonun 17.11.1993 yil 924-XII-son.

hokimiyati insonlarni jazolovchi organ emas balki huquqlarini himoya qiluvchi organ sifatida namoyon bo'ldi. Sudlar to'g'risidagi qonunda sudlar faoliyatini vazifalari ko'rsatib o'tildi.

O'zbekiston Respublikasida sudning faoliyati O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonunlarda hamda inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro hujjatlar e'lon qilingan fuqarolarning huquq va erkinliklariga, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga rioya etilishi kafolatlashga qaratilgan. Sudlarni faoliyati ijtimoiy adolatni, tinchlikni va totuvlikni taminlashga, huquqiy tartib va qonuniylikni barcha choralar bilan mustahkamlashga qaratilgan³.

Bundan ko'rinib turibdiki sudlar o'z faoliyatini amaldagi qonun hujaatlariga va xalqaro huquq normalariga asosan ish olib boradi. Sudlar to'g'risidagi qonunning qabul qilinishi adolatli fuqarolik jamiyatini qurish va inson huquqlari sohasidagi islohatlarni mustahkamlashga hizmat qildi. Fuqarolik jamiyati tushunchasiga tarif beradigan bo'lsak fuqarolik jamiyati bu- konstitutsiyaviy huquq nazaryasida huquq va demakratiyaga asoslangan ijtimoiy hayotining zarur oqilona usuli, insonga uning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti shakillarini erkin tanlash kafolatlanadigan, qonun ustuvorligi va inson huquqlari hamda erkinliklari qaror topadigan, ko'p partiyaviylik mafkura va fikrlarning xilma –xilligi taminlaydigan hamda o'zini –o'zi boshqarish organlarining movqeyi baland bo'lgan ijtimoiy tuzum.⁴ Bundan ko'rinib turibdiki fuqarolik jamiyati davlatning har bir fuqarosi davlat ishlarida faol qatnashadi.

2017 yilda konstitutsiyaviy islohotlar amalga oshirilib, unga ko'ra, davlatimiz rahbari huzurida faoliyat yuritgan Sudyalarni tanlash bo'yicha oliy malaka komissiyasi o'rniga Sudyalar Oliy kengashi⁵ tashkil etildi. Uning mustaqilligi va xolisligini ta'minlash maqsadida Sudyalar Oliy kengashiga konstitutsiyaviy maqom berildi.

Bundan tashqari, sudya lavozimiga muddatsiz tayinlash, sudya lavozimini egallab turish yoshi 65 yoshgacha, Oliy sud sudyalari uchun esa 70 yoshgacha etib belgilandi. Sudlar faoliyatini moddiy-texnik va moliyaviy jihatdan ta'minlash masalalari Adliya vazirligi vakolatidan Oliy sud vakolatiga o'tkazildi. E-SUD elektron sud jarayonining milliy axborot tizimi faoliyati yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 21 oktyabrdagi "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4850-son Farmoni davlatimizda sud huquq sohadagi islohatlarning yangi bosqichini boshlab berdi.

Sud-huquq sohasidagi islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri — insonning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari, avvalo, asossiz jinoiy ta'qib va shaxsiy hayotga

³ O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida" qonun 17.11.1993 yil 924-XII-son 4-modda

⁴ https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Fuqarolik_jamiyati

⁵ Ўзбекистон Республикасининг «Судьялар Олий Кенгаши тўғрисида»ги Қонуни. 2017 йил. 6 апрель // Халқ сўзи газетаси // 2017 йил 7 апрелдаги 69(6763)-сонда эълон қилинган.

aralashishdan himoyalani, shaxsiy daxlsizlik huquqlari hamda adolatli sud muhokamasiga bo'lgan huquqlari samarali muhofaza etilishini ta'minlash hisoblanadi. Zero, har bir demokratik davlatda sud tizimi inson huquqlari himoyasiga qaratilgan mexanizmning asosini tashkil qiladi.

Albatta, islohotlarning hayotga to'g'ri tatbiq etilishi va samara berishi ko'p omillarga bog'liq. Shu bois, avvalo, kadrlar, qolaversa, ishni to'g'ri tashkil etish mexanizmini yaratish, sud hokimiyati mustaqilligini ta'minlash kabi o'ta muhim masalalar e'tiborda bo'lib kelmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi⁶ mazkur sohadagi islohotlarni yanada chuqurlashtirishga xizmat qiladigan tarixiy ahamiyatga ega hujjat bo'ldi. Unda sud-huquq tizimini yanada demokratlashtirishga qaratilgan qator chora-tadbirlar, vazifalar belgilab berildi. Xususan, Oliy Majlis huzurida Sud hokimiyati mustaqilligini ta'minlashga ko'maklashish komissiyasini tashkil qilish taklifi ilgari surildi.

Ushbu komissiyaning asosiy vazifalari odamlardan kelib tushayotgan murojaatlar, xalq bilan bevosita uchrashuv va muloqot jarayonida ko'tarilayotgan masalalarni umumlashtirish, parlament so'rovi orqali haqqoniy vaziyatni tahlil qilish, Oliy sud va Sudyalar oliy kengashi bilan birga muammolarni hal etish kabilardir.

Mazkur Komissiyaning tashkil etilishi sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlashga, birinchi navbatda, sudyalarni odil sudlovga ta'sir o'tkazadigan omillardan himoya qilish, sudlarning ochiqligi va shaffofligini ta'minlash, sudyalar korpusi faoliyatini shakllantirishda sudyalar hamjamiyati rolini oshirish, sud hokimiyatining faoliyatini tubdan yaxshilab, nufuzini yanada ko'tarish, sudlar tuzilishini takomillashtirish hamda sudyalarni tanlash va lavozimlarga tayinlash tizimini demokratlashtirish, mamlakatda qonun ustuvorligini, qonuniylikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Bundan tashqari, fuqarolarning sudlar faoliyati yuzasidan qilayotgan murojaatlarining ijobiy hal etilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu ma'noda, Prezidentimiz SH. Mirziyoevning Oliy Majlis huzurida Sud hokimiyati mustaqilligini ta'minlashga ko'maklashish komissiyasini tashkil etish bo'yicha taklifi o'z vaqtida qabul qilindi, deb hisoblaymiz. Boisi ushbu Komissiya mamlakatimizda yuqoridagidek holatlarga to'laligicha barham berishga, sud hokimiyatini amalda yanada takomillashtirish borasidagi islohotlarning natijadorligiga katta hissa qo'shadi. Qisqacha aytganda, sud insonparvarlik tamoyili asosida fuqarolar huquq va manfaatlarini himoya qiluvchi odil organ sifatida faoliyat yuritadi. Zero, amalga oshirilayotgan islohotlarning tub zamirida ham insonparvarlik tamoyillariga asoslangan demokratik jamiyatni barpo etish maqsadi mujassamdir.

⁶ Ўзбекистон Республикасининг Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2018 йил 22 декабрь.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda mamlakatimizdagi sud hokimiyatidagi islohotlar, qabul qilinyotgan qonunlarning barchasi eng avvalo inson huquqlarini ta'minlashga va adolatli fuqarolik jamiyatini shakilanishiga hizmat qilib kelmiqda. Qachonki davlatda inson huquq va qonuniy manfaatlar to'liq taminlansa va kuchli fuqarolik jamiyati shakilansa o'sha davlatda barcha sohalrda o'sish va rivojlanish bo'ladi. O'zbekistondagi Sud tizmidagi islohatlar ham ushbu omillarni shakillanishda o'z hissasini qo'shmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикасининг Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2018 йил 22 декабрь.
2. О'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-iyundagi "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni / <https://lex.uz/docs/-4872355>
3. То'raqulov М.А. О'zbekistonda fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishda mahalliy davlat hokimiyatining roli. Toshkent: O'zbekiston. 2017. В.
4. О'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida" qonun 17.11.1993 yil 924-XII-son.
5. Ўзбекистон Республикасининг «Судьялар Олий Кенгаши тўғрисида»ги Қонуни. 2017 йил. 6 апрель // Халқ сўзи газетаси // 2017 йил 7 апрелдаги 69(6763)-сонда эълон қилинган.
6. О'РQ-703-сон 28.07.2021. Sudlar to'g'risida (lex.uz)
7. О'zbekiston Respublikasining «О'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy Qonuni. 2017 yil 31 may. О'РQ-431-son ;45-modda.